



Human activity and global problems

Yashin NARZULLAEV ¹

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

ARTICLE INFO

Article history:

Received July 2024
Received in revised form
15 August 2024
Accepted 25 August 2024
Available online
15 September 2024

Keywords:

manufacturing,
production,
environment,
alternative energy,
ecology,
conference,
solid household waste,
alternative energy,
to special places.

ABSTRACT

This article describes the environmental changes taking place in the world, their causes, and the work being done to eliminate these problems.

2181-1415/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol5-iss8/S-pp128-132>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Inson faoliyati va umumsayyoraviy muamolar

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

til o'zlashtirish,
ona tili,
onaning roli,
ijtimoiy muhit,
ijtimoiy ta'sir,
til tajribasi,
sotsial-iqtisodiy muhit,
oilalar tarkibi.

Ushbu maqolada dunyoda ro'y berayotgan ekologik o'zgarishlar, ularning sabablari va ushbu muammolarni bartaraf etish borasida olib borilayotgan ishlar bayon qilingan.

¹Student, Faculty of History, Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
E-mail: yashinnarzullayev74@gmail.com

Деятельность человека и глобальные проблемы

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

производство,
окружающая среда,
альтернативная
энергетика,
экология, конференция,
твердые бытовые отходы,
специальные
места.социальное
влияние, языковой опыт,
социально-экономическая
среда,
структура семьи.

В этой статье рассматриваются экологические изменения, происходящие в мире, их причины, а также меры, предпринимаемые для решения этих проблем.

Insoniyat tarixida tabiat ne'matlarini o'zlashtirish qadimdan, ya'ni ibtidoiy jamoa davridan boshlanib, u qo'l mehnatiga asoslangan bo'lsa, keyinchalik, ya'ni O'rta asrlarda manufaktura ishlab chiqarishiga asos solindi. Bu esa kishilik jamiyatida yangi ijtimoiy qatlamlarni vujudga kelishiga va bu qatlamlar dunyo xaritasini hamda undagi siyosiy jarayonlarni o'zgarib ketishida ma'lum bir ma'noda ahamiyat kasb etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishi, o'z navbatida fabrika - zavodlarning vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Keyingi paytlarda ushbu zavod fabrikalar takomillashdi va soni ko'paydi. Sanoat ishlab chiqarish turlari ortdi va keng ko'rinish ola boshladi. Ayniqsa, kimyoviy moddalar, harbiy qurol-yarog'lar ishlab chiqarish muhim o'rin tuta boshladi.

Biroq, o'tgan asrning boshlarida sanoat ishlab chiqarishi oqibatida chiqayotgan chiqindilar, ifloslangan gazlar hamda sanoat oqava suvlarini atrof-muhitga ta'siririning salbiy oqibatlari kishilik jamiyatiga solinayotgan eng yirik xavflardan biri sifatida o'zini ko'rsata boshladi. Buni insoniyat o'zining kelajakdagi hayotiga solinayotgan xavf sifatida anglagan bo'lsa-da, o'z vaqtida turli sabablarga ko'ra, yetarlicha chora ko'ra olmadi.

Ekologik o'zgarishlarni oldini olish bo'yicha 1913-yilda Shveysariyaning Bern shahrida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi, konferensiya doirasida kelgusida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ekologik muammolarni oldini olish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Ammo bu paytda dunyo davlatlarining ikkita siyosiy lagerga bo'linib ketishi hamda birinchi va ikkinchi jahon urushlari natijasida bu shartnomalar amal qilmay qoldi.

Ikkinchi jahon urushidan keyin, aniqrog'i o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab, atrof-muhit holatiga, ya'ni ekologiyaga alohida e'tibor berila boshladi. 1967-yilda "Rim klubi" nomli xalqaro tashkilotga asos solindi. Tashkilotning asosiy maqsadlari insoniyat oldida turgan muhim masalalarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat. Klubga jahonning 30 dan ortiq mamlakatlaridan yig'ilgan olimlar, mutafakkirlar, jamoat arboblari, iqlimshunoslar, hokimlar, o'qituvchilar a'zo bo'ldi.

Shu bilan birga, dunyoda eng yirik xalqaro tashkilot hisoblangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham atrof-muhit bo'yicha dastur yaratdi. Bu dastur UNEP (United Nations Environment Programme) deb nomlandi. Ushbu dasturdan butun tizim darajasida tabiatni muhofaza qilishni muvofiqlashtirishni amalga oshirish belgilandi. Dastur BMT Bosh Assambleyasining 1972-yil 15-dekabrda 2997-sonli rezolyutsiyasi asosida tashkil etilgan. UNEPning shtab kvartirasi Kenyaning Nayrobi shahrida joylashgan. Dasturning

asosiy maqsadi hozirgi va kelajak avlod uchun atrof-muhitni muhofaza qilish hamda yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishdir.

XX asrda inson faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lgan yana bir muammo – bu iqlim o'zgarishi hisoblanadi. Tarixda turli tabiiy ofatlar va boshqa sabablarga ko'ra, iqlim o'zgarishlari yuz bergani ma'lum. Hozirgi kunda yuz berayotgan iqlim o'zgarishi insoniyat olamiga juda katta ta'sir etayotgani hech kimga sir emas. Uning natijasi sifatida bugun jahon miqyosida iqlim migrantlarining paydo bo'lishiga ham inson faoliyati sababchi, deb aytish mumkin. Ushbu muammoning kishilik olamiga juda katta salbiy ta'sirini e'tiborga olgan holda Butunjahon meteorologiya tashkilotiga asos solingani bejiz emas. Ushbu xalqaro tashkilot UNEP bilan birgalikda 1988-yilda Iqlim o'zgarishi bo'yicha hukumatlararo panelni (IPCC) tashkil etdi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1992-yilning 3-14-iyun kunlarida Braziliyaning Rio-de-Janeyro shahrida xalqaro konferensiya bo'lib o'tdi. Bu konferensiya “Rio konferensiyasi” yoki “Yer sammiti” deb nomlandi. Sammit a'zolari “sovuq urushdan” keyin rivojlanish masalalari bo'yicha xalqaro hamkorlikni tashkil etish maqsadida strategik yo'llar vazifasida o'tkazilgan. Bunda ekologiya va atrof-muhit bo'yicha bir qancha masalalar ko'rib chiqildi.

Bugun, dunyo miqyosida energiya ta'minoti masalasi eng asosiy muammolardan biriga aylanib ulgurdi. Chunki, Yer qa'ridan qazib olinadigan yoqilg'idan foydalanishni muqobil energiya manbalari bilan almashtirish, barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qilishi o'z isbotini topdi. Biroq, bu birdaniga o'zgartirib bo'ladi, degani emas. Bu bir necha o'n yillarni talab qiladi. Yer qa'ridagi tabiiy resurslar ham cheklanganini unutmaslik lozim.

Shu o'rinda muqobil energiya yaratishni qanday hayotiy omillar talab qilmoqda, degan savol tug'iladi. Shaharlarda avtomobil chiqindilarini kamaytirish avvalo, shaharda tirbandlik masalasini, bu esa yo'l yoki boshqacha aytganda, shaharsozlik masalasida rivojlanish darajalarini e'tiborga olgan holda yondashishni talab etadi.

Bugun nafaqat mintaqa mamlakatlari, balki dunyo davlatlari miqyosida ham asosiy e'tiborni tortayotgan yana bir muammo bu - Orol dengizi fojiasidir. Bu muammoning paydo bo'lishi esa subyektiv sabablar bilan bog'liq ekanligi hech kimga sir emas. Orol fojiasi esa noto'g'ri olib borilgan siyosat natijasidir.

Ekologiya o'zgarishlariga eng avvalo sanoat korxonalarini ham sabab bo'lmoqda. Havoga tashlanadigan turli gazlar bilan birga, sanoatdan chiqayotgan oqava suvlar hamda sanoatdan chiqayotgan boshqa chiqindilarining ortib borishi ham atrof-muhitni o'zgarishiga, yangidan-yangi muammolarning vujudga kelishiga sabab bo'layotgani ma'lum.

Aytish joizki, bugun maishiy chiqindilar masalasi ham odamlar hayotiga keskin ta'sir etmoqda. Chunki, bu kabi chiqindilar inson hayoti uchun xavfli bo'lgan turli omillar uchun o'ziga xos manba bo'lib qolmoqda.

Ma'lumki, qattiq maishiy chiqindilar bu – kishining hayoti davomida hosil qiluvchi organik va noorganik chiqindilar, shuningdek ularning hududida tabiiy jarayonlar natijasida hosil bo'luvchi chiqindilar (ozuq-ovqat mahsulotlari, qurilish mahsulotlari, uy-ro'zg'or buyumlar).

Dunyo davlatlarida qattiq maishiy chiqindilar aholi jon boshiga hisoblanganda ortib borayotgani ko'rinmoqda. Ayniqsa, bu kabi chiqindilarga to'la qayta ishlov berish imkoniyatining yo'qligi ekologiyani salbiy tomonga o'zgartirayotganiga ma'lum ma'noda xizmat qilmoqda, deyish mumkin.

Qattiq maishiy chiqindilar bu: Plastik buyumlar, qog'oz chiqindilar, shishalar, poiletilen mahsulotlari kiradi, bu mahsulotlarni chirishi ancha vaqt oladi. Masalan qog'oz uch oydan so'ng chirishni boshlaydi, plastik va polietelin xaltachalarning biologik komponentlariga to'liq ajralish uchun 400-450 yil vaqt kerak bo'lsa, shisha million yildan so'ng chiriy boshlaydi.

Butun dunyoda bo'lgani kabi O'zbekistonda ham qattiq maishiy chiqindilar yetarli darajada bor va bular soat sayin ko'paymoqda. Shu sababdan ham ularga bo'lgan munosabatni o'zgartirish hozirgi vaqtdagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Qattiq maishiy chiqindilar qishloqlarga nisbatan shaharlarda ko'proq bo'ladi, shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan ko'proq chiqindi chiqaradi. Bu urbanizatsiyaning ta'siridir. Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tartibga solish muammolari g'oyatda dolzarb hisoblanadi. Qattiq maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirishda o'ziga xos muammolarimiz ham yo'q emas.

Bugungi kunda dunyodagi rivojlangan davlatlarda yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish maqsadida chiqindida unumli foydalanish yo'lga qo'yilmoqda. Ayrim mamlakatlarda chiqindilarni turlarga bo'lib yig'ish yo'lga qo'yilgan.

Dunyoda har yili 2,01 milliard tonna qattiq maishiy chiqindilar hosil bo'ladi. Respublikamizda o'rtacha har bir kishidan kuniga o'rtacha 0,75 kilogramm chiqindi hosil bo'ladi. Yiliga o'rtacha 7-8 million tonna tashkil etadi. Chiqindilarni boshqarishda ularni yig'ish muhim hisoblanadi, ammo hosil bo'lgan qattiq maishiy chiqindini o'z vaqtida olib chiqilmasa hamda zararsizlantirilmasa, atrof muhitni jiddiy ifloslantirishi mumkin. Havoni haroratining yuqori bo'lishi moddalarni parchalanishi va mikrofloralarning tez rivojlanishiga olib keladi. Ba'zi viloyat va tuman markazlarida qattiq maishiy chiqindini ruxsat etilmagan joyga to'kilish holatlari ko'p uchraydi, bu chiqindilarni yig'ishni bir muncha qiyinlashtiradi.

Masalan quruq chiqindilardan bir martalik ishlatiladigan qoshiq yoki stakan olsak bu ko'p marta ishlatiladigan qoshiq, stakandan gigienik jihatdan afzalroqdir.

Qattiq maishiy chiqindilarning zararli tomonlari ular yoqimsiz hid, xavfli gazlar chiqaradi suv, havo, tuproqni ifloslaydi, kasalliklar qo'zg'aydi va tabiiy jozibadorlikni buzadi. Qattiq maishiy chiqindilar asosan kundalik hayotimizda zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlaridan, uy-ro'zg'or buyumlaridan shisha, plastmassa, qog'oz kabilardan hosil bo'ladi.

Hozirgi rivojlanayotgan davrda chiqindilarni belgilanmagan joylarga tashlaydigan shaxslarni aniqlash yo'li osonlashgan, masalan Toshkent shahrini o'zida shaxsni aniqlaydigan zamonaviy kameralar ko'p o'rnatilmoqda, bu qonunbuzar shaxsni aniqlash va chora ko'rishni osonlashtiryapti. Ba'zi fuqarolarimiz esa bee'tiborlik bilan chiqindilarni istalgan joyga tashlab ketyapdi, bu noto'g'ri albatta, xalqimizda chiqindilarni tashlash madaniyati shakllanishi zarur. Zero chiqindi tashlash madaniyatimiz rivojlanmas ekan tabiat va ekologiyaga zararimiz ko'paysa ko'payadi lekin kamaymasligi mumkin.

To'plangan chiqindilardan chiqadigan noxush hidlar hosil bo'lishi, ular atrofidan turli xil hasharotlar, kalamush, kemiruvchilar to'planishi sanitar ahvolni yomonlashtiradi, ular orqali kasalliklar kelib chiqadi. Masalan pashsha orqali yuqadigan qorin tifi kasalligi, bu yuqumliligi kasallik hisoblanadi. Qattiq maishiy chiqindilarni to'planishidan atmosferaga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Atmosferaga milliard tonnalab zaharli gazlarning chiqishi natijasida sayyoramizning o'rtacha harorati yil sayin ko'tarilmoqda, bu global isishga olib keladi. Atmosfera havosida haroratning ortishi muzliklarning erishiga, suv

sathining ko'tarilishiga olib keladi, bu esa yog'in-sochin miqdorining kamayishiga olib keladi. Har qanday qazilma yoqilg'i yondirilganda chiqindi gazlar tarkibida oltingugurt va azot qo'sh oksidlari bo'ladi. Atmosferaga millionlab tonna chiqayotgan birikmalar yomg'irni kislotaga aylantiradi.

Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Rossiya, Shvetsiya, Norvegiya kabi dunyoni rivojlangan mamlakatlarida kislotali yomg'irlar yog'ishi katta o'rmon maydonlarining qurishiga sabab bo'ladi. Atmosferani yemirilishi natijasida havo haroratini global isishi bu mamlakatlarda o'rmon yomg'inlarini keltirib chiqaryapti. Katta o'rmonlarni yonishi atrofga zaharli gazlar va tutun chiqarib ekologiyani buzilishiga olib keladi, bu odamlar sog'lig'i uchun ham zarar. Atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar, chiqindi va chiqindi gazlarning zaharliligi asosan yondirilgan uglevodorod yoqilg'isining sifati, uning yonish jarayonidagi texnologiyalarning texnik holatiga bog'liq. Texnologiyalarning texnik holatini yaxshilash undan chiqadigan zararli moddalarni kamayishiga olib kelishi mumkin.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ekologiya va atrof-muhitni asrash bu barchamizning vazifamiz. Tabiatni muhofaza qilish bu nafaqat Vatan oldidagi farzandlik burchimizdir, balki insoniyatning kelajak avlod uchun qoldirishi mumkin bo'lgan yagona va bebaho xazinasidir. Tabiatni asrash va muhofaza qilish uchun albatta ekologiyaga oid ko'pgina qonunlar qabul qilishimiz. O'zbekiston Respublikasida ekologiyaga doir "kodeks" qabul qilishimiz zarur menimcha, bu hozirgi zamon uchun juda muhim sanaladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekistonda qattiq maishiy chiqindi (QMCH) larning atmosfera havosi, o'simlik va hayvonot dunyosi, yer va suv resurslariga ta'sirini baholash. Monografiya-I.Ruzieva, S.Buriev, N. Shakirov. Toshkent-2024 yil SARVAR PRINT nashriyoti.
2. A.Norboev. "O'zbekistonda favqulodda vaziyatlar davlat tizimi va uning barqarorlikni ta'minlashdagi o'рни". (Monografiya) T. 2014 y. «ZUXRA BARAKA BIZNES» MChJ. B.157.
3. Yer sammiti. <https://uz.m.wikipedia.org> internet sayti.
4. Orol dengizi. <https://uz.wikipedia.org> internet sayti.
5. Chiqindilarni belgilanmagan joyga tashlaganlik uchun jarima miqdori. Xalq so'zi. <https://xs.uz> internet sayti.
6. "Rim klubi". <https://uz.unansea.com> internet sayti.